



Научно-образовательный электронный журнал

ОБРАЗОВАНИЕ И НАУКА В XXI ВЕКЕ

**Выпуск №25 (том 6)
(апрель, 2022)**



Международный научно-образовательный
электронный журнал
«ОБРАЗОВАНИЕ И НАУКА В XXI ВЕКЕ»

УДК 37

ББК 94

**Международный научно-образовательный электронный журнал
«ОБРАЗОВАНИЕ И НАУКА В XXI ВЕКЕ». Выпуск №25 (том 6) (апрель,
2022). Дата выхода в свет: 30.04.2022.**

Сборник содержит научные статьи отечественных и зарубежных авторов по экономическим, техническим, философским, юридическим и другим наукам.

Миссия научно-образовательного электронного журнала «ОБРАЗОВАНИЕ И НАУКА В XXI ВЕКЕ» состоит в поддержке интереса читателей к оригинальным исследованиям и инновационным подходам в различных тематических направлениях, которые способствуют распространению лучшей отечественной и зарубежной практики в интернет пространстве.

Целевая аудитория журнала охватывает работников сферы образования (воспитателей, педагогов, учителей, руководителей кружков) и школьников, интересующихся вопросами, освещаемыми в журнале.

Материалы публикуются в авторской редакции. За соблюдение законов об интеллектуальной собственности и за содержание статей ответственность несут авторы статей. Мнение редакции может не совпадать с мнением авторов статей. При использовании и заимствовании материалов ссылка на издание обязательна.

© ООО «МОЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНАЯ КАРЬЕРА»

© Коллектив авторов

СОДЕРЖАНИЕ

Название научной статьи, ФИО авторов	Номер страницы
ДОПОЛНИТЕЛЬНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ	
ФОРМИРОВАНИЕ АКТИВНЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ В ПЕДАГОГИЧЕСКОМ ОБРАЗОВАНИИ Халиков Давлат Рахмат углы	28
YANGI O'ZBEKISTONDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUB'EKTALARINI QO'LLAB-QUVVATLASHDA MIKROKREDITLAR HAJMINI OSHIRISH ORQALI ULARNING MOLIYAVIY BARQARORLIGINI TA'MINLASH OMILLARI Usmonov Elmurod Dilmurod o'g'li, Olimova Durdonaxon Shuhratbek qizi	34
АНАЛИЗ ВИБРОЗВУКО-ПОГЛАЩАЮЩИХ СВОЙСТВ КОМПОЗИЦИОННЫХ ПОЛИМЕРНЫХ МАТЕРИАЛОВ И ПОКРЫТИЙ ИЗ НИХ Бурхон Тургунович, Умаров Содикжон Ахмадали угли	39
СЫНЫПТАН ЖӘНЕ МЕКТЕПТЕН ТЫС ТӘРБИЕ ЖҰМЫСТАРЫНЫҢ МАҚСАТ ЖӘНЕ МІНДЕТТЕРІ Аралова Диляфруз Душабой қызы, Дауирбекова Зарема Маркабай қызы, Анарбекова Феруза Абдумавлон қызы	49
ВАТАН ТАРАҚҚИЁТИ ФОЯСИНИ ШАҚЛАНТИРИШДА ИЖТИМОЙ ФАНЛАРНИ ЎҚИТИШНИНГ ЎРНИ Бахронов Баҳридин Бўриевич	53
ВЛИЯНИЕ ТВОРЧЕСТВА И.С. ТУРГЕНЕВА НА РАЗВИТИЕ РУССКОЙ ЛИТЕРАТУРЫ XIX ВЕКА Касимов Азиз Бердимуратович, Тухтаева Лаура Рустамовна	58
ИЗУЧЕНИЕ ТРИБОТЕХНИЧЕСКИХ СВОЙСТВ КОМПОЗИЦИОННЫХ МАТЕРИАЛОВ И ПОЛИМЕРНЫХ ПОКРЫТИЙ НА ИХ ОСНОВЕ Хаминов Бурхон Тургунович, Умаров Содикжон Ахмадали угли	64
ЦИФРОВАЯ ТРАНСФОРМАЦИЯ В СЕЛЬСКОМ ХОЗЯЙСТВЕ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН Исанов Абдумажит Парманович	71
KULOLCHILIK SAN'ATI VA TARIXI Abduqahhorova Gulnora Qahramon qizi	78
РАЗВИТИЕ КОНСТРУКТИВНЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ СТУДЕНТОВ В 3D ТЕХНОЛОГИЯХ Мухитдинов Абдувахоб Абдувалиевич	81

DESCRIPTION OF THE RESEARCH CARRIED OUT ON THE CREATING AND SUBSTANTIATING OF PARAMETERS OF MACHINES EQUIPPED WITH DISC WORKING BODIES Kuchkarov Zhurat Zhalilovich, Safarov SHavkat To'xta ugli, Sobirov Komil Sodiq o'g'li	818
REVIEW OF RESEARCH ON THE CREATION OF MEANS FOR LEVELING AND SOFTENING CROP AREAS BEFORE PLANTING Kuchkarov Zhurat Zhalilovich, Safarov SHavkat To'xta ugli, Sobirov Komil Sodiq o'g'li	825
O'RTA TOLALI G'O'ZA NAVLARINING PAXTA TOLASINI SAQLASH USULLARI VA DASTLABKI ISHLASHNI ILMIY ASOSLARINI O'RGANISH Ortiqov Izzatulla Isroiljon o'g'li, Xomidov Zikrullo, Iqboljon Obloberdiyev	832
ҚИШЛОК ХЎЖАЛИГИ ЭКИН МАЙДОНЛАРИГА ИШЛОВ БЕРИШДА ДИСКЛИ КУРОЛЛАРНИНГ АФЗАЛЛИКЛАРИ Остонов Шухрат Сайдович., Сафаров Шавкат Тўхта ўғли, Собиров Комил Содик ўғли, Бойсоатов Абдухолик Чаршанби ўғли	836
БАЗАЛИ ТЕКИСЛАГИЧ ДИСКЛИ ЮМШАТКИЧЛИ ИШ ОРГАНЛАРИНИНГ ИШЛОВ БЕРИШ ЧУКУРЛИГИ БЎЙИЧА БИР ТЕКИС ЮРИШИНИ ТАДЌИҚ ЭТИШ Кўчкоров Ж.Ж., Сафаров Ш. Т., Собиров К. С., Бойсоатов А.Ч., Нуриллаев Х.И.	841
MAKTABGACHA TA'LIM YOSHIDAGI BOLALARGA MA'NAVIY -AXLOQIY TARBIYA BERISHDA INTEGRATSION YONDASHUV Abdualimova Shabnam Hasan qizi	849
ABDULLA QODIRIY ASARLARI JAHON NIGOHIDA Ergashov Nurbek To'raqul o'g'li, Mamatqulov Navro'zbek Abror o'g'li	854
ABU MANSUR AL-MOTURIDIY ASARLARI Alibekov G'iyo'siddin Azamatovich	859
ANALYSIS OF PEDAGOGICAL TERMS IN ENGLISH AND UZBEK Kurbanova G.A.	866
SUV XO'JALIGI KORXONALARIDA ASOSIY VOSITALARNI HISOBINI TARTIBGA SOLUVCHI XALQARO STANDARTLARNI TASNIFFLASH Primova Shahnoza Komiljonova, Baydovurov Ulug'bek Rahimjon o'g'li	872

ФИО авторов: *Primova Shahnoza Komiljonova*

TIQXMMI Milliy tadqiqot universiteti

“Buxgalteriya hisobi(tarmoqlar va sohalar bo’yicha)

2-bosqich magistranti

Baydovurov Ulug’bek Rahimjon o’g’li

TIQXMMI Milliy tadqiqot universiteti

“Buxgalteriya hisobi(tarmoqlar va sohalar bo’yicha)

2-bosqich magistranti

ФИО научного руководителя: i.f.d., dos. *M.Sh.Mamatqulov*

Название публикации: «SUV XO’JALIGI KORXONALARIDA ASOSIY

VOSITALARNI HISOBINI TARTIBGA SOLUVCHI XALQARO

STANDARTLARNI TASNIFFLASH»

ANNOTATSIYA: *Ushbu maqolada O’zbekistonda suv xo’jaligi bo’yicha amalga oshirilayotgan islohotlar, sohani rivojlantirish chora tadbirlari bilan birgalikda , suv xo’jaligi korxonalaridagi asosiy vositalar hisobini tartibga soluvchi xalqaro standartlar to’g’risida ma’lumotlarga ega bo’lishimiz mumkin.*

KALIT SO’ZLAR: meliorativ, moliyaviy hisobot, suv resurslari, resurstejamkor texnologiyalar, zamonaviy qurilish materiallari, ilg‘or xorijiy tajribalar, transchegaraviy, SIU/fermer xo’jaliklari...

KIRISH

O’zbekistonda so’nggi yillarda barcha sohalar kabi suv xo’jaligi sohasini rivojlantirishga ham alohida e’tibor qaratilmoqda. Respublikamizda yer va suv resurslaridan samarali foydalanish, suv resurslarini boshqarish tizimini takomillashtirish, suv xo’jaligi ob’yektlarini modernizatsiya qilish va rivojlantirish bo’yicha izchil islohotlar amalga oshirilmoqda. Tadbirkorlik faoliyati umumiyl holda xalqaro standartlar asosida yuzaga kelmoqda. Shu o’rinda suv xo’jaligi korxonalarida asosiy vositalarni tartibga soluvchi xalqaro standartlarni ko’rib chiqsak.

Tadqiqot va metodologiya.

Yurtimizda suv xo’jaligini rivojlantirish yo’lida bir qancha tadqiqot va izlanishlar olib borilmoqda. Xususan, suvdan foydalanish koeffitsiyentini yanada oshirish uchun irrigatsiya tarmoqlaridagi yo’qotiladigan suv miqdorini kamaytirish kerak bo’ladi.

Buning uchun sug‘oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash, irrigatsiya-melioratsiya ob‘yektlarini rekonstruksiya qilish va ta’mirlash-tiklash hamda suv tejovchi texnologiyalarni keng qo‘llash , Moliyaviy jihatiga e’tibor ko’rsatish, hisob kitob ishlarini rejali olib borish zarur. Shu bilan birgalikda suv xo‘jaligi korxonalarida **asosiy vositalar** hisobini rejalashtirilgan holda, xalqaro standartlar asosida olib borishimiz kerak. Suv xo‘jaligi sohasidagi mavjud muammolar (suv tanqisligi va suv resurslariga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar, jumladan, iqlim o‘zgarishi, aholi sonining o‘sishi, suvgaga bo‘lgan talabning oshib borishi)ni aniqlash, ularni o‘z vaqtida bartaraf qilish va chora-tadbirlar ishlab chiqish anchagina mashaqqatni talab etadi.Bu kabi muammo va ziddiyatlari vaziyatlarni hal etish borasida bir qancha qaror va chora tadbirlar ishlab chiqilmoqda.Quyida: Prezidentimizning “Suv resurslaridan foydalanish sohasida davlat boshqaruvi tizimini yanada takomillashtirish va suv xo‘jaligi obektlari xavfsizligini ta’minalash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni loyihasi muhokama uchun joylashtirildi.

Quyidagilar O‘zbekiston Respublikasi Suv xo‘jaligi vazirligining asosiy vazifalari va faoliyati yo‘nalishlari etib belgilanadi:

- **Suv resurslarini** boshqarish va hisobini yuritish sohasida yagona siyosatni amalga oshirish, shuningdek, suv resurslaridan oqilona foydalanish va ularni muhofaza qilish, suvlarning zararli ta’sirini oldini olish va bartaraf etish sohasida davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari hamda boshqa tashkilotlar faoliyatini muvofiqlashtirish;
- Respublika aholisi, iqtisodiyot tarmoqlari va atrof-muhitning suvgaga bo‘lgan muttasil oshib borayotgan ehtiyojlarini qondirish uchun shart-sharoitlarni yaratish, suv resurslarini samarali boshqarish va foydalanishni ta’minalash;
- Yerlarning **meliorativ** holatini yaxshilash va barqarorligini ta’minalash choralarini ko‘rish, suv xo‘jaligida bozor iqtisodiyoti tamoyillari, davlatxususiy sheriklik mexanizmi va autsorsingni joriy qilish;
- Loyerha-qidiruv, ekspertiza va qurilish ishlarini sifatli tashkil qilish, **Suv resurslar** obektlarini modernizatsiyalash va rivojlantirish, ishonchli va xavfsiz ishlashini ta’minalash, toifalangan suv xo‘jaligi obektlarini loyihalash va

ekspertiza qilish ishlariga xorijiy mutaxassislarini jalg qilish hamda suv xo'jaligi vositalarini tashkil etishda xalqaro standartlardan keng foydalanish;

- Har bir loyihaning iqtisodiy samaradorligi va obektning xavfsizligini aniq ko'rsatkich va mezonlar asosida chuqr tahlil qilish orqali ustuvor loyihalarni belgilash va amalga oshirish;
- Suv xo'jaligi sohasida resurstejamkor texnologiyalar, zamonaviy qurilish materiallari, ilg'or xorijiy tajribalarni keng qo'llash;
- Suv xo'jaligi obektlarini boshqarish, suvning hisobi va hisobotini yuritish hamda tegishli ma'lumotlar bazasini shakllantirishda raqamli iqtisodiyot sohasidagi ilg'or ishlanma va texnologiyalarni joriy qilish;
- Suv xo'jaligi sohasidagi mutaxassislar malakasini oshirishni tizimli tashkil etish, suv xo'jaligi tashkilotlari bilan ta'lim va ilmiy muassasalar o'rtaсидаги integratsiyani kuchaytirish, fan va texnika yutuqlarini amaliyatga joriy etish;
- **Transchegaraviy** suv resurslarini boshqarish va ulardan foydalanish bo'yicha davlatlararo munosabatlarni rivojlantirish, xorijiy investitsiyalar va texnik ko'mak mablag'larini (grantlar) jalg qilish, shuningdek, suv xo'jaligi sohasidagi xalqaro tashkilotlar faoliyatida faol ishtirok etish.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 24-apreldagi PF-4720-sonli "**Aksiyadorlik jamiyatlarida zamonaviy korporativ boshqaruvs uslublarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida**" gi farmoniga asosan, 2015-2018 yillarda barcha aksiyadorlik jamiyatlari yillik moliyaviy hisobotini nashr etishi va xalqaro audit standartlari hamda xalqaro moliyaviy hisobot standartlariga muvofiq tashqi auditni o'tkazishi va aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatining samaradorligini oshirish va korporativ boshqaruvs tizimini takomillashtirish komissiyasining 2015- yilning 1-iyuliga qadar aksiyadorlik jamiyatlarining yillik **moliyaviy hisobotini** xalqaro standartlarga muvofiq nashr etish jadvalini tasdiqlanishi lozimligi belgilangan

O‘zbekiston Respublikasi Suv xo‘jaligi vazirligi huzuridagi Katta va alohida muhim suv xo‘jaligi obektlarining texnik holatini hamda bexatar ishlashini nazorat qilish davlat inspeksiyasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Suv xo‘jaligi obektlari xavfsizligini va suvdan foydalanishni nazorat qilish davlat inspeksiyasi etib qayta tashkil etildi. Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Agrosanoat majmui ustidan nazorat qilish inspeksiyasidan sun’iy suv obektlarida suvdan oqilona va samarali foydalanimishi hamda suvdan foydalanish qoidalariga rioya etilishi ustidan nazoratni ta’minlashga mas’ul bo‘lgan 295 ta xodimlar shtat birligi bilan birga Inspeksiyaga o‘tkazildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR.

Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (**MHXS** lar) - bu Moliyaviy xisobotning xalqaro standartlari bo'yicha kengashi (**MHXS_K**) tomonidan chiqarilgan standartlar va sharhlardir. Ular quyidagilarni qamrab oladi:

- **Buxgalteriya** hisobining xalqaro standartlari;
- **Moliyaviy** hisobotning xalqaro standartlari.

Mazkur xalqaro standartlarning qo’llanishi suvni o’lchash va ro’yxatga olish tizimining samaradorligini sezilarli darajada yaxshilaydi, bu esa qishloq xo‘jaligi va aholining suv bilan ta’minlanishini yaxshilashga olib keladi, va shu bilan qishloq hududlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta’minlashda katta hissa qo’shamdi.

Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari butun jahonda moliyaviy hisobot standartlarining yaqinlanishida muhim rol o’ynadi. Ulardan quyidagi maqsadlarda foydalaniadi:

1. Ko’pchilik hisob va hisobotga qo'yiladigan milliy talablar uchun asos bo’lib xizmat qilish;
2. Hisob va hisobotga nisbatan o’z talablarini ishlab chiqayotgan alohida mamlakatlar uchun xalqaro etalon sifatida ishlatilishi (sanoati rivojlangan mamlakatlar bilan bir qatorda, endi rivojlanib borayotgan bozorlar uchun, masalam, Xitoy , Osiyoning boshqa mamlakatlari hamda sobiq Sovet Ittifoqi mamlakatlari ham shular jumlasidandir);
3. Fond birjalari va tartibga soluvchi organlar tomonidan moliyaviy hisobotni Moliyaviy hisobotlar xalqaro standartlariga mos ravishda tuzilishini talab qilgan hollarda;
4. Kapital bozorlari uchun standartlar ishlab chiqishda to’lig’icha Moliyaviy hisobotlar xalqaro standartlariga asoslanishga qaror qilgan Yevropa Komissiyasi kabi milliy organlar tomonidan ishlatilishi;
5. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari talab qilinmaydigan mamlakatlarda ham kompaniyalar soni ortganligi tufayli foydalanimishi.

Yuqoridagilar tufayli Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari butun jahonda yanada kengroq foydalanilmoqda. Xatto, ba'zi mamlakatlar **Moliyaviy Hisobotlar Xalqaro Standartlari (MHXS)** ni o'z standartlaridek o'zgarishlarsiz ishlatishmoqda, ba'zilari esa mamlakat xususiyatidan kelib chiqib ayrim o'zgarishlarni kiritmoqdalar. Ko'p millatli yirik kompaniyalar esa Moliyaviy hisobotlar xalqaro standartlaridan foydalanish ular uchun qulayligini ta'kidlashmoqda. Moliyaviy hisobotlar xalqaro standartlarning tan olinishi va tobora ko'proq ishlatilishini isbotlovchi eng muhim voqealardan biri bu qimmatbaho qog'ozlar va birjalar bo'yicha Komissiyalarning Xalqaro Tashkiloti tomonidan xorijiy kotirovkalar uchun moliyaviy hisobotlar xalqaro standartlarining asos qilib olinishidir.

Yevropa komissiyasi esa Moliyaviy hisobotlar xalqaro standartlariga hisobotning va umuman bug'alteriya hisobining muvofiqlashishi nuqtai nazaridan **Yevropa Ittifoqida** adolatli va samarali raqobat muhitini saqlashda muhim ekanligini e'tirof etmoqda. Yevropa Komissiyasi moliyaviy hisobot standartlari garmonizasiyasida **MHXSK** bilan hamkorlik qilish samarali ekanligini rasmiy ravishda e'lon qilgan **BMTTD** va Qishloq va suv xo'jaligi vazirligining qo'shma tashabbusi 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasiga, shu bilan birga Barqaror taraqqiyot maqsadlariga (**BTM**), xususan 6-maqsad "Suv resurslarining mavjudligi, ulardan oqilona foydalanish va har bir insonning sanitariya vositalaridan foydalanish imkoniyatini ta'minlash"ga erishishda davlatlarga ko'maklashish maqsadida butun jahon miqyosida amalga oshirilayotgan BMTTD ning faoliyatiga muvofiq ravishda amalga oshirib kelinmoqda.

XULOSA.

Xulosa qioib aytganimizda, ushbu normativ hujjatlarda, "**Suv xo'jaligini boshqarish tizimi**", to'g'risida ko'plab chora tadbirlar o'z ifodasini topgan. Shuningdek, "**Asosiy vositalarni hisobini tartibga soluvchi xalqaro standartlar**" jamlanmalari keng qamrovda ochib berilgan. Yuqorida ko'rib chiqilganlardan bizga ma'lumki, suv xo'jaligini boshqarish va suv xo'jaligi vositalari, hisobotnomalarini tartibga solish bo'yicha yurtimizda ko'plab tadqiqotlar o'tkazilmoqda. Zero suv xo'jaligini takomillashuvi dehqonchilik, obodonchilik ishlariga ijobiy tomondan katta ta'sir ko'rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. I.A.Karimov "O'zbekiston bozor munosabatlariga o'tishning o'ziga xos yo'li" Toshken, "O'zbekiston" 1993
2. I.A.Karimov "O'zbekiston o'z taraqqiyot yo'li va istiqlol yo'li" Toshkent "O'zbekiston" 1994

3. Yo'ldoshev Z. Y. "Iqtisodiy va sotsial rivojlanishni planlashtirish". Toshkent, "O'qituvchi" 1992
4. Keyns Dj. M. Obshaya teoriya zanyatosti, protsenta I deneg. "Misl" Moskva 1987
5. Klas Eklund Effektivnaya ekonomika. Shvedskaya model. Moskva "Ekonomika" 1991.
6. O'lmasov A., Sharifho'jaev M. Iqtisodiyot nazariyasi . Qisqacha lug'at malumotnomma. Qomuslar Bosh tahririyati. 1991 yil.